

## ALISHER NAVOIYNING “ARBA’IN” ASARIDA QO’LLANGAN SHE’RIY UNSURLAR BADIYATI

*M.B.Eshniyazova,  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqola “Arba’in” asaridagi nazmiy parchalarning poetik tahlili, she’riy bandlarning qofiyalanish tartibi, janriy xususiyatlari, qofiya va radif, ularning turlari hamda badiiy o‘ziga xosliklari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** nazm, hadis sharhi, qofiyalanish tartibi, masnaviy, qit’a, qofiya, mutlaq qofiya, muqayyad qofiya, to‘li qofiya, och qofiya, radif, qisqa radif, yoyiq radif, hojib.

O‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib mumtoz adabiyotning eng ko‘p janrlarida asar yaratgan nodir iste’dod sohibi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Uning o‘z tili bilan aytganda, “yuz ming bayt”lik “nazm-u nasr”dan iborat butun ijodi muallifning salohiyati qaydarajada yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Mayjud adabiyotlarda Alisher Navoiyning turkiy va forsiy ijodi jamlanganda lirikaning 18 janrida qalam tebratganligi ta’kidlanadi. Navoiyshunos Sultonmurod Olim adibning asarlari soni va umimiy ijodining janr tarkibi haqida to‘xtalganda, “Hazrat Navoiy jami 31 janrda naqd 4 ming 585 ta asar bitgan!” degan xulosaga keladi. Lekin asarlar miqdorini belgilashda “Nazmul-javohir” va “Arba’in”dagi she’rlar hamda nazr-u nazm aralash shaklda yozilgan asarlari tarkibida keltirilgan she’riy parchalarni alohida mustaqil asarlar sirasiga kiritmaydi. “Nazmul-javohir”dagi ruboiylar va “Arba’in”dagi qit’alar jamlanib, “nazmiy tarjima” janriga kiritiladi. Olimning yozishicha, “Bu yerda kelajakda aniqlik kiritilishi zarur bo‘lgan ikki nozik nuqta bor. Birinchisi shuki, “Nazm ul-javohir”dagi she’rlar arabiyyidan, “Arba’in”dagi she’rlar esa forsiydan tarjima qilingan. Ammo navoiyshunosligimizda hali ular qay darajadagi yoki qaysi tipdagi tarjimalar ekani

ilman aniqlashtirib berilganicha yo‘q”. Biz kelgusi tadqiqotlarimizda mana shu borada ham izlanishlar olib borishni maqsad qilib qo‘ydik. Bugungi maqolamizda esa “Arba’in” asaridagi she’r bandlarining “ilmi qofiya” talablari bo‘yicha tahlilini ko‘rib o‘tmoqchimiz.

“Arba’in” asari Abdurahmon Jomiy tomonidan qayta yaratilgan sahif qirq hadisning nazmiy ifodasi bo‘lib, Alisher Navoiy ustozи, piri va maslakdoshidan izn so‘rab, ushbu nazmiy matnni o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Asar an’anaviy hamd, na’t, munojot, “Sababi ta’lifi manzuma”, asosiy matn (nasr va mazm), xotima (nazmiy va nasriy) qismlaridan iborat. To‘plamning hamd (1 bayt), na’t (1 bayt), munojot (3 bayt), “Sababi ta’lifi manzuma” (18 bayt), she’riy xotima (5 bayt) qismlari – jami 28 bayt she’r masnaviy usulida *aa*, *bb*, *cc*, ... tarzida qofiyalangan. Asosiy qismda esa 40 ta hadisning asl arabiyligi matni va uning she’riy talqini ketma-ketlikda tartib bilan berilgan. Sheriy parchalarning qofiyalanish tartibiga e’tibor qaratilsa, 39 tasi *abcb* tarzida, 1 tasi *aaba* ko‘rinishida qofiyalangan.

Qofiya she’rda ritm va musiqiylikni ta’minalash, g‘oyaviy mazmunni kuchaytirib ifodalash, g‘oyaviy yukni tashish bilan birga, uni boshqarish, asarning kompozitsion qurilmasi va janr xususiyatlarini belgilashda asosiy mezon sanaladi. Adabiyotshunoslikda qit’a janri xususiyatlari haqida so‘z borganda unga “ikki yoki undan ortiq baytdan tarkib topadi, juft misralari o‘zaro qofiyalangani holda toq misralari ochiq qoladi, vazn va mazmun jihatlaridan cheklanmaydi, — ko‘ramizki, bunda shakl xususiyatlari janri belgilovchi asos bo‘lib xizmat qiladi” degan ta’rif beriladi. Ushbu berilgan ta’rifga ko‘ra, sher’iy parchalardan 39 tasi qit’a janrining qofiyalanish tartibiga mos tushadi, faqat bitta she’riy band ruboiy ko‘rinishida qofiyalangan:

Elga ne kelsa, aylamas pand

Ulki, ko‘nglini qildi g‘aflat band.

Kimki pand oldi elga tushgandin,

Oni bilkim, erur saodatmand.

Aslida, qofiya shunday bir san’atki, Sharq mumtoz adabiyotida hech bir she’r qofiyasiz yaratilmaydi, uning qoidalari buzilmaydi. Shuning uchun olimlar

qofiya ilmini shoir va she'rxonning alifbesi hisoblashgan va adabiyotshunosligimizda maxsus o'rganilgan.

Mumtoz adabiyotimizda qofiyadosh so'zlarning raviy bilan tugash-tugamasligiga ko'ra turlari mavjud bo'lib, mutlaq va muqayyad qofiya farqlanadi. "Arba'in"dagi she'riy parchalarga bu jihatdan e'tibor qaratilsa, mutlaq qofiyaga nisbatan muqayyad qofiya qo'llangan baytlar miqdori keskin farqlanishi ko'zga tashlanadi. Asarning masnaviy usulida qofiyalangan qismida mavjud 28 baytdan bor-yo'g'i ikkitasida mutlaq qofiya uchraydi, qolgan 26 baytning barchasida muqayyad qofiya qo'llangan. Shuningdek, qit'alarning 11 tasida mutlaq, 29 tasida muqayyad qofiyadan foydalanilgan. Aynan muqayyad qofiyalar qit'alardagi hukmni qat'iy, keskin ifodalash imkonini beradi, muallifning darddoshlik tuyg'usidan ko'ra ko'proq shiddatli fikri, dolzarb mavzusi, umumbashariy g'oyasi asosiy e'tibor markaziga chiqariladi.

"Arba'in"dagi qofiyadosh so'zlarda turkiy va forsiy lafzlar ham qo'llangan bo'lsa-da, asosan, arabiylar yetakchilik qiladi. Muallif qofiyadosh so'zlarni tanlashga hadisning asl matnida qo'llangan so'zlardan yoki uning asosdoshlaridan ham unumli foydalanadi. Bunda hadis matnidagi mantiqiy urg'u olgan birliklarni qofiyada ishlatishga e'tibor qaratiladi va hadisdagi fikriy ta'kidning she'riy sharhda ham saqlanishiga erishiladi. Masalan, "Al-kalimat ut-toyyibatu sadaqatun" – "Yaxshi so'z **sadaqadir**" hadisi shoir tomonidan quyidagi shaklda nazm ipiga teriladi:

Yaxshi so'z birla hojat ahlin so'r,  
Bermasang yaxshi to'madin nafaqa.  
Ne uchunkim, rasul qavli bilan  
Yaxshi so'z border o'ylakim **sadaqa**.

"Arba'in"dagi qit'alarda to'q qofiyalar ko'p uchrasa-da, ba'zi qit'alarda o'zbek xalq og'zaki she'riyatida bo'lgani kabi och qofiyalar ham qo'llangan. Agar shoir she'rda och qofiya qo'llagan bo'lsa, u holda qofiya yonida radif ham keltiradiki, bu nazmda ohangdorlikni to'liq saqlash imkonini beradi:

Mo'min emastur, ulki imondin

Ro‘zgorida yuz **saf**o ko‘rgay,  
Toki qardoshiga ravo ko‘rmas –  
Har nekim o‘ziga **rav**o ko‘rgay.

Alisher Navoiy san’atga san’at qo‘sib, bir o‘rinda tajnisli qofiyadan foydalanadi va so‘z o‘yini qilib, til imkoniyatlarining yana bir jilolanishini amaliy ko‘rsatib beradi:

Subh uyqusin ulki aylar tark,  
Rizq-u ro‘zin o‘ziga **to‘sh** ko‘rgay.  
Ulki g‘aflatdin etti navmi sabuh,  
Bu sharafni magarki **tush** ko‘rgay.

Ma’lumki, she’riyatning musiqiylikni ta’minlovchi, asardagi asosiy yukni ko‘taruvchi unsurlaridan biri radifdir. Alisher Navoiy ijodida radiflardan foydalanish salmoqli o‘rib tutadi. Masalan, Navoiyning 5782 qo‘shmisradan iborat «Farhod va Shirin» dostonining 965 ta bayti (17 foizi) ni muraddaf (radifli) baytlar tashkil qiladi. Demak, radif adib ijodidagi eng asosiy badiiy san’atlardan biridir. Radiflarning ishlatilishi jihatidan “A’rba’in” asari ham o‘ziga xos: undagi she’riy bandlarda muallifning bu she’riy unsuridan samarali foydalanganini ko‘rish mumkin. Asarning masnaviy usulida qofiyalangan qismida 11 bayt radifli, 17 bayt radifsiz. Qit’alardan esa 11 tasi radifli, qolgan 29 tasi radifsiz. Alisher Navoiy qo‘llagan radiflar sof turkiy so‘zlar bo‘lib, bu holat asarning butun o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘ziga xos badiiy o‘rni borligidan dalolat beradi. Asarda *bo‘lub, topqaylar, qildi, etib, aylab, erdi, ettim, bo‘lg‘ay, ko‘rgay, qilmoq, etti, o‘lg‘ay, yetgay* kabi fe’llar, *manga, suvdin, andin, birla* kabi boshqa turkumga mansub, lekin sof turkiy so‘zlar radif sifatida qo‘llanib, musiqiylik va ohangdorlikni ta’minalash, ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi. “Arba’in”dagi radiflarda o‘zbek tilining grammatic qurilishiga oid qoidalarga ishora qiluvchi birliklar, ya’ni fe’l so‘z turkumiga xos so‘zlar ko‘proq qo‘llangan. Ma’lumki, o‘zbek tilida kesim gapning oxirida keladi va u ko‘pincha fe’l so‘z turkumi bilan ifodalanadi. Agar baytdagi fikrning asosiy yuki radif zimmasiga tushishi, shoir fikrda nimaga ko‘proq urg‘u bermoqchi bo‘lsa, o‘sha so‘z yoki so‘zlarni radifga olishi, mavzu

ham, badiiy tasvir ham, demakki, g‘oya ham shu so‘z atrofida aylanishi, janr hajman kichraya borgan sayin radif zimmasiga yuklatiladigan badiiy vazifa shunchalik orta borishi hisobga olinsa, muallifning asl maqsadi ham ko‘zga tashlangandek bo‘ladi, ya’ni muallif ta’kidlaganidek, o‘quvchi kitobxon hadislarni, uning nazmdagi “murattab”ini shunchaki o‘qishi emas, balki amalda bajarishi, unda ifodalangan fikrni anglagan holda ijrosiga shoshilishi, harakatlarni boshlashi lozim.

Adibning radif qo‘llash mahoratiga e’tibor qaratilsa, qisqa (yig‘iq) radif bilan bir qatorda yoyiq radifli qit’alar ham uchri kuzatiladi:

Hirsdin kechgil, ul g‘amedurkim,

**Had-u g‘oyat emas anga paydo.**

Tut qanoatke, ul erur mole

**Ki, nihoyat emas anga paydo.**

She’rda qofiyadan keyin, ya’ni unga «mingashib» yoki «yo‘ldosh bo‘lib» kelgan bir so‘z yoki so‘zlar turkumining takrori «radif» deb ataladi. Lekin she’riy asarlarda qofiyadosh so‘zlardan oldin takrorlanib keladigan va adabiyotshunosligimizda “hojib” deb ataladigan she’r unsuri ham bor. Alisher Navoiy bunday badiiy unsurdan ham foydalanib fikrning ta’kidiga, qofiyadagi yukning kitobxonga bo‘rttirib yetkazilishiga erishadi:

Bir-birin do‘stlar agar gah-gah

**Ko‘rsalar, do‘stluq o‘lur g‘olib.**

Shavqdin ixtilot o‘lur matlub,

**Vasl uchun orzu o‘lur tolib.**

“Arba’in” asarining asosiy qismi sanalgan qirq hadis sharhi qit’a janrida berilishi ham bejiz emas. Qit’ada kuzatilgan voqeordan darhol poetik xulosa chiqarish, fikrni boshqa janrdagi qat’iy shakllarga qaraganda erkin ifodalash mumkin; hajm, vazn, mavzu doirasi chegaralanmagan. Qit’a yaxlit asar sifatida ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy va boshqa yo‘nalishlardagi muayyan mavzuga bag‘ishlanib, ularda, umuman olganda, pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. Alisher Navoiy bu janrning barcha imkoniyatlaridan samarali

foydalanim, uning yetuk namunalarini yaratdi hamda o‘zbek qit’achiliginin yuksak pog‘onalarga ko‘tardi. «Xazoyin ul-maoniy»dagi jami 210 ta qit’a, shuningdek «Mahbub ul-qulub», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Pahlavon Muhammad» va boshqa asarlaridagi qit’a namunalari shoirning keng dunyoqarash, buyuk salohiyat egasi ekanligini yaqqol ko‘rsatib turadi. Shu bois Abdurahmon Jomiyning forsiy tildagi “Arba’in”i qo‘liga tushganda ustozi va maslakdoshining ijozati, duosi ila e’tiqodi, tafakkuri, qalbi amri bilan juda qisqa muddatda, kutilgandan ham tezroq tarjima qilishga erishdi:

Men demakni chu muddao aylab,

Ul ijozat berib duo aylab...

Bir-ikki kunki ehtimom ettim,

Ko‘z tutardin burun tamom ettim.

Demak, Alisher Navoiy maslagida, e’tiqodida sobit turgan, uni targ‘ib qilish yo‘lida astoydil mehnat qilgan, shu bilan birga, kundalik hayotdagi hodisalarga hozirjavoblik bilan munosabatda bo‘lgan. Agar mavjud masala olam va unda odam taqdiri, inson shaxsiyati, jamiyat tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, hazrat Navoiy bu haqida yozishga doim kuch topgan va unga jidd-u jahd bilan kirishgan.

Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shdi, balki shaxs tarbiyasida ulkan maktab yaratib ketdi. Adibning har bir asarini o‘qib uqish, mag‘zini chaqib, fikrlarni idrok etib tafakkur qilish, badiiyatini his qilib, didni shakllantirish, ona tilning betakror imkoniyatlarini o‘rganib, hayotga tatbiq etish o‘zimiz uchun, millatimiz, mamlakatimiz kelajagi uchun faqat va faqat foydali, manfaatli bo‘ladigan vazifalarimizdan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Arba’in. Toshkent: «Fan», 2000.
2. Qurbonov Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish. – [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
3. Sultonmurod Olim. Navoiy qancha va nechta janrda asar bitgan? - <https://yuz.uz/uz/news/navoiy-qancha-va-nechta-janrda-asar-bitgan>
4. Eshniyazova M. “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi she’riy parchalarning g‘oyaviy-badiiy qimmati. Alisher Navoiy xalqaro jurnali, 2023-yil, 3-jild, 1-son.

5. Pardaeva, I. (2020). Mesnavi “Tarihi Muluki Ajam”-The fruit of the scientist's rational thinking. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 432-441.
6. Пардаева, И. (2018). Анушервон адолат тимсоли. Иностранный филолог: язык, литература, образование, 3(2 (67)), 109-112.
7. Каримова, С. (2021). Ҳиндистон форсий адабиёти тарихи. Иностранный филолог: язык, литература, образование, (2 (79)), 25-30.
8. Диляфруз Рахматова (2021). Совершенствующие «Минувшие дни». Общество и инновации, 2 (3/S), 173-179. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss3/S-pp173-179